



NAMANGAN VILOYATI YANGIQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 10-dekabr

740-6-90-Q/24

Yangiqo'rg'on tuman
hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrda "Namangan viloyatidagi oliy ta'lim, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi hamda boshqa sohalaridagi faol yoshlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish haqida" 590-6-0-Q/24-sonli qarori to'g'risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrda "Namangan viloyatidagi oliy ta'lim, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi hamda boshqa sohalaridagi faol yoshlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish haqida" 590-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 211-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrda "Namangan viloyatidagi oliy ta'lim, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi hamda boshqa sohalaridagi faol yoshlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish haqida" 590-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Namangan viloyati filiali, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi hamda viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasining viloyatdagi faol yoshlarni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish haqidagi, shuningdek har yili oktabr oyida "Men tanlagan kasb" mavzusidagi an'anaviy yoshlar saylini o'tkazib borish haqidagi takliflari ma'qullanganligi e'tiborga olinsin.

"Yosh o'qituvchilar va o'quvchilar bilan ochiq muloqoti" da yoshlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib:

"Davlat va jamiyat hayotidagi faol yosh";

"Eng ma'rifatli va bilimdon o'quvchi";

"Eng ma'naviyatli yosh o'qituvchi" ko'rik-tanlovi o'tkazish haqidagi takliflar ma'qullanganligi;

Viloyatdagi davlat va nodavlat tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan faol yoshlarni, barcha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ma'naviy muhitni

yaxshilash, o'quvchi va talabalarning odob-axloqi, vatanparvarlik, fidoyilik kabi hislatlarini shakllantirish, namunali faoliyat olib borayotgan yosh pedagog xodimlar hamda iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida yilda bir marotaba o'tkazilishi;

Mazkur tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha:

Viloyat tashkiliy qo'mitasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

“Davlat va jamiyat hayotidagi faol yosh” tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizom 2-ilovaga;

“Eng ma'rifatli va bilimdon o'quvchi” tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizom 3-ilovaga muvofiq;

“Eng ma'naviyatli yosh o'qituvchi” ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Namangan filiali (SH.To'xtabayev)ga Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (A.Isakov), Yoshlar ishlari boshqarmasi (B.Mirzatov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (A.Gaffarov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (M.Appakov) hamda tegishli boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda yoshlar o'rtasida, shuningdek ta'lim tashkilotlarida keng targ'ib qilishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish choralarini ko'rish topshirilganligi;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari, Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, homiylik hamda grand mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi ta'minlash yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (A.Qayumov), Yoshlar ishlari bo'limi (E.Koraboyev), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi (I.Mamadjonov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (D.Vaxabov) hamda tegishli bo'lim va tashkilotlarga mazkur qaror talablari asosida ish tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

4. “Yangiqo'rg'on xayoti” gazetasi (D.Asqarova) va boshqa ommaviy axborot vositalariga tanlov jarayonini keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari R.Shomirzayev va tuman hokimining o'rinbosari E.Mexmanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Najmiddinov